

INDORAMA-AGRO

NEWSLETTER

Investitsiya imkoniyatlari**Barqarorlik****Biznes**



Indorama O'zbekistonda
biznesini kengaytirmoqda



GRM & CSR NATIJALARI

O'ZBEKISTON-SINGAPUR HAMKORLIK UFQLARI KENGAYMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi oliylari Singapur Prezidenti Halima Yoqubning taklifiga binoan 2023-yil 16-18-yanvar kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Bu Prezident Mirziyoyevning Singapurga ilk davlat tashrifidir.

O'zbekiston Prezidenti Singapur ishbilarmon doiralari bilan uchrashdi. Tadbirda Singapur Savdo va sanoat vaziri Leng Si Tang, Singapur biznes federatsiyasi raisi Ming Yang Lim, yirik kompaniyalar rahbarlari va Indorama Corporation prezidenti Janob Shri Prakash Lohia bilan ham suhbatlashdi.



Singapur-O'zbekiston
ishbilarmonlar bilan uchrashuv

O'zbekiston rahbari uzoq muddatli va o'zaro manfaatli hamkorlikning eng istiqbolli yo'nalishlariga, jumladan, Singapur kompaniyalarining O'zbekistondagi xususiyashtirish jarayonlarida ishtiroy etishi, kimyo va to'qimachilik sanoatida qo'shma loyihalarni amalga oshirish, "yashil" iqtisodiyotga alohida e'tibor qaratdi. Indorama O'zbekistonga sarmoya kiritishni yanada ko'paytirishni maqsad qilgan.

INDORAMA KORPORATSIYASI VA O'ZBEKISTON HUKUMATI O'RTASIDA STRATEGIK SHERIKLIK TO'G'RISIDAGI BITIM IMZOLANDI

Prezident Mirziyoyevning davlat tashrifi doirasida Indorama korporatsiyasi hamkorligida va homiyiligida "O'zbekiston – Singapur" biznes-forumi bo'lib o'tdi.

Biznes-forum ikki davlat o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishga xizmat qildi. Forumda Singapur Savdo va sanoat vaziri Leng Si Tang hamda O'zbekiston sarmoya, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov ishtirok etdi.

Indorama korporatsiyasi direktori janob Prakash Kejrali vazir L.Qudratov bilan uchrashdi. Muloqot chog'ida O'zbekistonga kichik sanoat to'qimachilik zonalarini boshqarish bo'yicha ilg'or tajribani jalb etish, biotexnologiya zavodini qurish, biologik laboratoriylar tarmoqlarini kengaytirish va boshqalarni hisobga olgan holda hamkorlikni kengaytirishning istiqbolli yo'naliishlari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv yakunlari bo'yicha Indorama korporatsiyasi va O'zbekiston hukumati o'rtasida to'qimachilik va kimyo sanoatida yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha strategik hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.



**INDORAMA
CORPORATION
"O'ZBEKISTON-SINGAPUR"
BIZNES-FORUMINING
TASHKILOTCHILARIDAN
BIRI VA HOMIYSI BO'LDI**



Follow



FE INDORAMA-AGRO LLC



Sardoba viloyatida ilk mustaqil kasaba uyushmasi o'z faoliyatini boshladi

Indorama Agro O'zbekistonda mustaqil kasaba uyushmalarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Xodimlarning murojaatlardan kelib chiqib, korxona faoliyatida ochiqlikni ta'minlash maqsadida "Sardoba" filiali xodimlarini Mustaqil kasaba uyushmasini tashkil etishda qo'llab-quvvatlashga qaror qilindi. Shu maqsadda ochiq ovoz berish yo'li bilan Kasaba uyushmasi rahbari saylandi.

28 yanvar kuni "Indorama Agro" Okoltin tumanidagi Tairov fermer xo'jaligidagi Kasaba uyushmasiga yangi ofis sovg'a qildi. Yangi ofis qulay tarzda qurilgan, alohida kirish joyi, ikkita xonasi va majlislar zaliga ega.

Ofis barcha zarur jihozlar bilan jihozlangan.



Indorama-Agro Sardoba xalqini qo'llab-quvvatlaydi

Yurtimizning sovuq kunlarida "Indorama-Agro" korxonasi Sardoba tumanidagi Otayurt va Birlik mahallalariga ichimlik suvi yetkazib bermoqda.

Qishloqlarda havo sovuq bo'lgani uchun suv quvurlari muzlab qolgan, aholi ichimlik suvini 12 km masofadan olib kelishga majbur bo'lgan. Korxona rahbarlari tashabbusi bilan quvurlar to'liq ishga tushgunga qadar har kuni maxsus texnika orqali mahallaga ichimlik suvi yetkazib berilmoqda.

Ayni damda quvirlarni alishtirish uchun maxsus texnika axoliga xizmt qilmoqda



IndoramaAgro o'z xodimlarini yangi ko'nikmalar , xususan, barqarorlik sohasida bilimlarini kengaytirishga intiladi

31-yanvardan 4-fevralgacha Indorama Agro uchta shaharda: Qarshi, Guliston va Toshkentda Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (ESMS) bo'yicha o'ziga xos birinchi seminarlarni o'tkazdi.

Seminarlар Hindistonning ERM kompaniyasi tomonidan o'tkazildi va ularda 74 nafar mutaxassis ishtirok etdi. Olingan saboqlardan foydalanib, ushbu mutaxassislar barcha Indorama Agro ishlab chiqarish jarayonlarida atrof-muhitni boshqarishning yuqori standartlarini amalga oshiradilar.

2021 yilda Indorama Agro Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTB) tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ushbu qo'llab-quvvatlash doirasida Indorama Agro turli ilg'or xalqaro tajribalarni, jumladan, ESMS standartlarini joriy etish ustida ishlamoqda. Kelgusida ERM India Indorama Agroda standartlarning joriy etilishini kuzatib boradi va keyingi optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.



Bizning shiorimiz "Birinchi navbatda xavfsizlik!"

Indorama - Agro siyosati ishchilar va xodimlar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini joriy etishdan iborat.

Har bir xodim korxonada ish boshlagan birinchi kundan boshlab xavfsizlik va qoidalarga rioya qilish bo'yicha treninglardan o'tadi. Ishlab chiqarishda shikastlanishlar va baxtsiz hodisalarining oldini olish uchun barcha talablarni hisobga olgan holda ish jarayonini to'g'ri tashkil etish muhimdir.

Har oyda kompaniya o'z xodimlari uchun treninglar o'tkazib, ularning bilimini oshirib boradi. Yanvar oyida 35 nafardan ortiq ishchi-xizmatchi ishlab chiqarish bo'linmalarining kundalik ishlarida foydalilaniladigan yuk mashinalari va kranlardan foydalanish bo'yicha o'qitildi. Natijada treninglarni muvaffaqiyatli tamomlaganlik sertifikatlari topshirildi.

Follow



BIZNING MUVAFFAQIYATIMIZ O'ZBEKISTONDAGI QULAY SARMOYAVIY MUHITDIR

"DUNYO" AGENTLIGI UCHUN
INTERVYU

- O'zbekistonda "Indorama" 2010-yilda "Indorama Kokand Textile" korxonasining tashkil etilishi bilan boshlangan. To'qimachilik sanoatining birinchi yirik xorijiy sarmoyadorlaridan biriga aylanib, mamlakat yengil sanoatini rivojlanadirishga va yalpi ichki mahsuloti ko'payishiga hissa qo'shamoqdamiz.

Ilg'or texnologiya va uskunalarga ega bo'lgan "Indorama Qo'qon tekstil" korxonasi qisqa vaqt ichida yuqori texnologiyali, yuqori eksport salohiyatiga ega, sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonaga aylandi. Ayni paytda O'zbekistonda "Indorama"da ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlarining **90 foizi dunyoning 60 davlatiga eksport** qilinmoqda. Shu tariqa "Indorama Kokand Textile" "Made in Uzbekistan" global platformasiga aylandi.

- 2018 yilda "Indorama Agro" MCHJ paxta-to'qimachilik klasteri sifatida tashkil etilgan. Hukumatning xususiy lashtirish borasidagi sa'y-harakatlari natijasida zamonaviy korxonalar O'zbekistonning an'anaviy va konservativ paxta sanoatini yangi, katta rivojlanish salohiyatiga ega bo'lgan yo'lga qo'ydi.



PRAKASH KEJRIVAL

INDORAMA CORPORATION PTE. LTD. DIREKTORI

- "Indorama Qo'qon Tekstil" loyihasiga 200 million dollardan ortiq sarmoya kiritilib, mingdan ortiq kishi ish bilan ta'minlandi, 50 ming tonna paxta toiasi ishlab chiqarish uchun 4 ta ishlab chiqarish liniyasi qurildi. Bu muvaffaqiyat barqaror rivojlanishga zamin yaratdi.

- INDORAMA-AGRO LLC O'Z QADRIYATLARIغا SODIQ QOLGAN HOLDА, KIMYOVIY MODDALARDAN FOYDALANISHNI KAMAYTIRISH, TUPROQ SIFATINI SAQLASH VA YAXSHILASH HAMDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHGA YO'NALTIRILGAN BARQAROR BIZNES MODELINI YURITADI.

Indorama kompaniyasi O'zbekistonga 500 million dollardan ortiq sarmoya kiritdi, 3 mingdan ortiq ish o'rni yaratdi.

YER TAYYORLASH VA OYNING MUHIM UCHRASHUVLARI



Qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olishda shudgorlash katta ahamiyatga ega. O'z vaqtida, sifatli shudgorlash kelgusi yil hosili uchun puxta zamin yaratadi. Shudgor tuproqdagi organik qoldiqlarni o'simlik ildiz zonasidan chirishga va ularni chirindi va zarur oziq moddalarga aylantirishga imkon beradi.

Tuproqqa ishlov berishda asosiy oziq moddalar sifatida **organik, fosforli va kaliyli o'g'itlar** qo'llaniladi. Bu o'g'itlarning ta'siri shudgor bilan qo'llanilganda eng yuqori sifatni beradi.

Indorama Agro 2023 yilgi qishloq xo'jaligi ekinlari, ya'ni paxta yaxshi va serhosil bo'lishi uchun kompaniyaga tegishli yerlarni shudgorlash jarayonini boshlab yubordi.

Oqoltin tumanida Indorama Agro Kasbi tumani **Mug'lon paxta tozalash** zavodi tarkibida yangi tashkil etilgan urug'chilikni qayta ishslash korxonasiga yangi va mavjud xodimlar hamda yangi ishga qabul qilingan xodimlar bilan **ISO treningi** o'tkazildi. Bundan tashqari, yangi tuzilma doirasida Indorama Agro qishloq xo'jaligi departamentining **NANO bo'limi** bilan ishga qabul qilish bo'yicha suhbatlar o'tkazilmoqda.

Muxim uchrashuvlar

"NANO" mas'uliyati cheklangan jamiyatি, "Turkman", "Hamza" va "Guliston" kompaniyalari bilan suhbatlar o'tkazildi va xodimlari o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

20-yanvar kuni yordamchi va boshqaruvchilar bilan suhbat va treninglar tashkil etilib, korxonada **mehnat unumdarligini pasaytirmaslik** va shu yo'l bilan ishchilarning **huquqlarini ta'minlash** yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida yangi tashkil etilgan **BIO Laboratoriysi** bo'limiga bir qator ishchilarni ishga olish uchun maxsus suhbat jarayonlari o'tkazildi.





Texnik operatorlar bilan suhbat

Joriy yilning 18-yanvar kuni Guliston shahar bo'limida rekonstruksiya boshqarmasiga qarashli tekislash uskunalarini operatorlarini ishga qabul qilish bo'yicha shartnomalar yangilandi, shuningdek, Jamoa shartnomasi hamda korxona qoidalari va siyosati tanishtirildi va imzolandi.

Kasaba uyushma a'zolari bilan konsultativ uchrashuv

Joriy yilning 14 yanvar kuni **Minovar Sidikova** (kadrlar bo'limi), **Dipak Asabe**, **Nitin Kumar** (ishlab chiqarish bo'limi rahbarlari), **Navin Rathi** (moliya va hisob) hamda "Indorama Agro" MChJ Kasaba Uyushmasi qo'mitasi raisi **Sh.Aliboyev** va Kasaba uyushmasi a'zolari Guliston shahridagi idorada qishloq xo'jaligi masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Har bir xodim ishlab chiqilgan siyosat bilan tanishtirildi va tushuntirildi. Shuningdek, mehnat qonunchiligi, atrof-muhit salomatligi va xavfsizligini muhofaza qilish qoidalariga nisbatan 2023 yil uchun kompaniya siyosati va tartiblari tushuntirildi.

"Indorama Agro" tomonidan bunday korxonalar xodimlarining huquqlarini qo'llab-quvvatlash borasida umumiyl ko'rsatmalar va tushunchalar berildi.



Follow



SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMI (GRM) KORPORATIV IJTIMOIY JAVOBGARLIK (KSS)



FAOLIYAT NATIJALARI

2022-yil may oyida Indorama Agro'da **shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi va korporativ ijtimoiy javobgarlik tizimi** joriy etildi. Ushbu loyihani amalga oshirishda tajribali mutaxassislar jamoasi jalg etildi. Qisqa vaqt ichida Indorama Agro barcha muammoli masalalarni qamrab oldi. O'tgan 9 oy davomida 476 dan ortiq murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan 315 tasi shikoyatlar, 115 tasi hududlar aholisidan kelib tushgan murojaatlardir.

95%
murojaatlar ijobiy
yechim topgan

TIZIM QANDAY JORIY QILINGAN

2022 yil may oyida ESG jamoasi kompaniya mutaxassislari uchun bir qator **treninglar** tashkil etdi, **Call-markazni** tashkil etdi va **ariza va shikoyatlarni onlayn qabul** qildi. Murojaatlar **2 turga** bo'linadi:

1) ichki - kompaniya xodimlaridan to'g'ridan-to'g'ri shikoyat va talablar va 2) tashqi - tashkilotlar va jamoatchilik tomonidan. Jami 352 ta tashqi, 124 ta esa ichki qo'ng'iroqlardir.

**2022-yil yakuniga ko'ra, 315 ta murojaatdan
297 tasi ijobiy hal etilgan**



Follow



ijtimoiy tarmoqlarimizda batafsil ma'lumot